ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 10

# FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
# TIL
# ADABIYOT
# TA'LIM



## Philological research:
## LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

## Филологические исследования:
## ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
TerDU

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

# PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

# FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

# ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

**2024/ № 10**

Termiz – 2024

**Muassis:**
**Termiz davlat universiteti**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

**Tahririyat manzili:**
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

**BOSH MUHARRIR:**
Abduqodir TOSHQULOV,
*iqtisod fanlari doktori, professor*

**TAHRIR HAY’ATI:**

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

**Учредитель:**
**Термезский государственный университет**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**
**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

**Адрес редакции:**
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР**:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

**Institutor:**
**Termez State University**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

**EDITOR IN-CHIEF**:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

**EDITORIAL BOARD:**

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

# МУНДАРИЖА

## TILSHUNOSLIK

**JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,**
**TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA**
Intensivlik va darajalanish munosabati .....7

**ТОЖИЕВ ОЛИМЖОН МУЙДИНОВИЧ**
Ўзбек тилида равиш/сифат типидаги лексемаларда мазмуний синкретизм .....12

**UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH**
Til – hissiyotlar ifodalash vositasi .....16

**MARDIYEV BEGALI XUDOYQUL O‘G‘LI**
Shaxs nomlarining lug‘aviy qatlamdagi o‘rni va tavsifiy belgilari .....21

**QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA**
Ingliz tili biznes diskursida dunyoning paremiologik manzarasi.....24

**JO‘RAYEVA NASIBAXON GANIYEVNA**
Tarixiy romanlar diskursida so‘zlarning
o‘zaro ma’no munosabatlari .....29

**RO‘ZIMATOVA DILNOZA MURODOVNA**
Ijtimoiy maqomning sotsiolingvistik talqini .....32

**ZAYNUTDINOVA GULNOZA ANVARJON QIZI**
Presedent birliklar va turg‘un birikmalarning
badiiy matndagi poetik ahamiyati (Shuhrat Orif ijodi misolida).....37

**VASLIDDINOVA KAMOLA QODIRJON QIZI**
Korpus platformalarining til tadqiqotidagi amaliy ahamiyati.....42

**НАРМУРОДОВА ДИЛФУЗА АБДУХОЛИК КИЗИ**
Типологические и генетические характеристики
терминосистемы civil engineering/строительство .....46

**YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA**
Phraseological units with clothing components in english language.....49

# МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

**BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA**
Muxammaslarda ijtimoiy muammolar tasviri.....51

**СМАМУТОВА ШИРИН АЗАТБАЕВНА**
Қазіргі қазақ-қарақалпақ прозасындағы әдеби байланыстар.....54

**АБДУЛЛАЕВ МУҲАММАД ҲАМЗАЕВИЧ**
Убайдий рубоийнавис шоир.....57

**ГАСЫМОВА СЕВИНДЖ АШУР КЫЗЫ**
Традиции праздника новруз в Азербайджане.....60

**NADIM MUHAMMAD HUMAYUN**
Alisher Navoiying «Hayratul-abror» dostoniga ishlangan «Hammomdagi uchrashuv» miniatyurasiga sharh va Navoiy qurdirgan ba'zi inshootlar.....66

**JUMAYEV ILHOM HAMROYEVICH**
O'zg'urmish – komil zohid timsoli.....71

**КЕНЖЕБАЕВА РОЗА САЙЛАУОВНА**
Фариза оңғарсынова және қарақалпақ Ақын-жазушылары арасындағы достық әдеби байланыс.....78

**ALIYEVA ORZIGUL**
Abdulla Oripov va Shavkat Rahmonning olam hamda insonga munosabatidagi o'ziga xoslik.....81

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

# MUXAMMASLARDA IJTIMOIY MUAMMOLAR TASVIRI

**Boltayeva Gulchehra Shokirovna,**
*Navoiy davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

XVII asr o'zbek adabiyoti tarixida ishqiy, diniy-ma'rifiy muxammaslar bilan birga ijtimoiy mavzudagi she'rlar ham uchraydi. Bu davr adabiyotida muxammas janri imkoniyatlaridan foydalanib, zamonadagi ijtimoiy muammolarni tasvirlash keng tus oldi. Turmush manzaralari va muayyan tarixiy sharoitga munosabat orqali bu turdagi she'rlarning mazmun-mundarijasi kengaydi. Adabiyotda diniy-axloqiy, tasavvufiy qarashlar bilan birga ijtimoiy voqelik tasvirining o'zaro uyg'unlashib ketganligi yaqqol nazarga tashlanadi. Zamona amaldorlari o'tkir hajv ostiga olingan va ikki tilda yozilgan muxammaslar davr adabiyotining xarakterli xususiyatidir.

Shunday adiblardan biri Turdi Farog'iydir. Buxoro adabiy muhiti vakili bo'lgan Turdining o'tkir hajv va satirik ruh bilan yo'g'rilgan muxammaslari adabiyotimiz tarixida o'ziga xos o'ringa ega. Shoir ashtarxoniylardan Nodirmuhammad (1642-1645), Abdulaziz (1645-1680) va Subhonqulixon (1680-1702) hukmronligi davrida yashadi. U fors-tojik tilini juda yaxshi bilgan, dastlabki she'rlari ishqiy-intim mavzuda yaratilgan. Turdi Sa'diy g'azaliga betakror muxammas bog'lagan.

Buxoro xonligi Subxonqulixon (1680-1702) qo'liga o'tgandan so'ng saroyda urug'-aymoqqchilik avj oladi. Mamlakatni hamjihatlik bilan boshqarish o'rniga nizolar kuchayib ketadi. Subhonqulixon saroyida nizo-adovat, amaldorlarning o'zboshimchaligi, poraxo'rlik, munofiqlik kuchayadi. Subhonqulixon xalqdan "barot" deb nomlangan mudhish usul bilan bir yo'la yetti yillik soliqni undirib ola boshlaydi. Mamlakat inqirozga yuz tutadi, oddiy xalq xonavayron bo'ladi. Omma o'rtasida norozilik kundan-kunga kuchayadi. Turdi saroydan quviladi. Shu munosabat bilan shoir ijodida satirik asarlar yozishga ishtiyoq ortadi.

Turdi ijodida o'sha davr ijtimoiy muhitini tasvirlagan "Subxonqulixon va uning amir-amaldorlari to'g'risida hajv" nomli satirik muxammasi alohida o'rin egallaydi. Asarning to'liq nomi haqida V.Abdullayev shunday yozadi: "Bu satirik muxammasning sarlavhasi tojikcha bo'lib, to'la nomi quyidagichadir: "Dar asri Subhonqulixon va bid'athon, xon va g'ulomon va umaroi xoni mazkur va zolimon va inoq budani Bayloq qushbegi; muxammasi turki dar hajvi onho tahrir namuda Turdi" ("Subhonqulixon asrida xon, uning qullari va amirlarining bid'atlari va zolimligi, Bayloq qushbegining inoq bo'lishi, Turdining ularni hajv qilib, turkiy muxammas yozgani")"[1]. Shoir bu satirik muxammasini 1691-yilda yozgan. Muxammas 33 band, 165 misradan iborat. Hajm jihatdan ancha katta muxammasda shoir Subxonqulixon va uning amir-amaldorlari kirdikorlarini fosh qiladi. Ularning ma'naviy qiyofasini chizib beradi. Muxammasda ijtimoiy muhitdan norozilik kayfiyati kuchli ifodalangan: Joyi osoyish emas hech kima bu ko'hna ravoq, // Yog'durur boshimiza sangi jafo, gardi firoq, //Yo'qolib rasmi vafo, bo'ldi hama bosh-u oyoq, //Mulkdin adl-u karam ketti, kelib kin-u nifoq, //Yaxshiliq qilma tama', zulm ila do'ldi ofoq...[2]

Shoh taxtga o'tirishi bilanoq tajribali, ishbilarmon mulozimlarni quvib, ularning o'rniga o'z atrofida davlatni boshqarish ishidan butunlay xabarsiz, fikr-mulohazalari sayoz, axloqan tuban kishilarni yig'adi. Turdi bu muxammasida Subhonqulixon qiyofasida johil shoh timsolini yaratadi. Adabiyotshunos olim A. Hayitmetov shoir ijodining o'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rnini yuksak baholab, "ushbu hajviy asari bilan Turdi o'zbek hajviyotini Alisher Navoiydan keyin yangi bir bosqichga ko'targan"[3], – deb ta'kidlaydi.

Turdi Subhonqulixonni ta'riflashda "bid'atu zulm aning xilqat-u asli zoti", "so'zidur betagu farmoni nishoni jaali", "mumsik-u sifla-yu dundurki bag'oyat qabali" deb uning munofiqligi, razilligi va zolimligini tanqid qiladi. Subxonqulixon taxt tepasiga chiqqach, xalq va yurt ahvoliga mutlaqo qiziqmaydi, saroyi girdobiga o'ralib qoladi. Buni Turdi xonning tilidan quyidagicha tasvirlaydi: Shukrkim, dorul-amon manzilimu ma'voim... //Davlat-u xojasarolardur maning simoyim, //Olami sel agar tutsa, balanddur joyim, // Ark ichin mahkam etib ayladim o'zimga yotoq (O'sha joyda).

---

[1] Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи (XVII асрдан XX асрнинг иккинчи ярмигача). – Тошкент, 2019. – Б. 121.

[2] https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/turdi-farogiy/ (Keyingi misollar shu manbadan olinadi va qavs ichida izoh keltiriladi).

[3] https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ozbek-mumtoz-sheriyati-turdi-farogiy.html

Subhonqulixonning amir-beklari zo‘ravonlikda, insofsizlik va adolatsizlikda uning o‘zidan qolishmas edilar. Uning saroyi insofsiz, johil va tekinxo‘r amaldorlar makoniga aylanadi: Xon eshigida kishi qolmadi bir sohibi fan, //Bor bir necha so‘qum qaydi mahzi gardan, //Kelmas qo‘llaridin ish, hama oshxo‘r, g‘arzai...(O‘sha joyda).

Subhonqulixon va uning amaldorlariga qarshi xalq nafratini ifodalagan shoir bu amaldorlarning jirkanch basharalarini tasvirlaydi. Bunda shoir “ko‘ppak yuzli ko‘r”, “mag‘zava aralash ichimlik bilan to‘lib-toshgan mesh”, “och itdek” kabi o‘xshatish va sifatlashlarni qo‘llaydi. Muxammasda o‘tkir satira shoir ifodalamoqchi bo‘lgan badiiy niyatini yorqin ochib berishga xizmat qilgan. Shoir xalqning so‘nggi burda nonini va hatto etini yegan, borini tortib olgan poraxo‘r va talonchi beklarni qoralaydi. Xalq boshiga yog‘ilgan balolar hech kamaymaganligini ta’kidlaydi: Yedingiz barchangiz itdek fuqaroning etini, //G‘asb ila molin olib, qo‘ymadingizlar bitini. //Qamchilar dog‘ solib bo‘yung‘a, tilib betini, //Yordingiz zahrasini (ichidan) olib o‘tini, //Bo‘lmadi kam bu raiyat boshidin hech tayoq (O‘sha joyda).

Turdi bu muxammasida xalqni xonavayron qilgan Subxonqulixon va uning amir-amaldorlarini el-yurt nomidan insofga chaqiradi. Ularni adolatga undaydi.

Maxmurning mulamma’ (shiru shakar) usulida yozilgan muxammasi ham ijtimoiy mavzuda bo‘lib, unda shoir hukmron tabaqa vakillarining kirdikorlaridan xalqning norozi kayfiyatini tasvirlaydi. Xalqning ahvoli bilan qiziqmaydigan amaldorlarni qattiq tanqid qiladi. Bunda asosan falakni ayblab, shu obraz orqali o‘zining davrga munosabatini ifoda etadi: Ey falak, dar borai mo zulmi behad bo to bakay? //Mo asiron dar tilismi mardumi bad to bakay? //Bar sari mo roston shamshiri chun mad to bakay? //Yak alam dar borai mo soxtan sad to bakay? //Ey sitamparvar, yuraklar tah-batah qon aylading[1]. Ma’nosi: Ey falak, bizga bu cheksiz zulming qachongacha davom etadi? //Biz yomon kishilarning tilsimiga tokaygacha asir bo‘lib turamiz? //Biz rostlar boshida qayrilma qamchilar qachongacha sinadi? //Tokaygacha bir alamni biz uchun yuz alam qilasan? //Ey zolim, yuraklarni qatma-qat qonga aylantirding.

Ritorik so‘roq asosida bitilgan misralar mazmunidan anglashiladiki, falakka murojaat orqali shoir jamiyatdagi amaldorlarning sitami ortib ketganligi, bundan mazlum xalq jabr ko‘rayotganligini ifodalaydi. Muxammasning fors-tojikcha bandida “behad-bad-mad-sad” kabi so‘zlar ohangdosh bo‘lib, bbb-ba tarzida qofiyalangan. Mustaqil muxammasning keyingi bandi o‘zbek tilida yozilgan. Unda Maxmur o‘z zamonida og‘ir ahvol kechirgan xalqparvar olimlar, donolar haqida so‘zlaydi. She’rda ularning mashaqqatli, og‘ir hayot kechirganliklarini achinish hissi bilan ifodalaydi. Johillar, boy va amaldorlar qo‘lida hisobsiz boylik to‘plangani-yu, donolar holining zabunligi orqali tuzumdan norozilik kayfiyatini ifodalaydi. Muxammasning bandi yana o‘zbek tilida bo‘lib, tojik tilida ifodalangan g‘oyaviy mazmun davom ettiriladi. Shoir zamona zulmlaridan oddiy insonlarda sabr-u toqat qolmaganligini ta’kidlaydi. Maxmur bu bandda zamona yolg‘onlarga do‘nganligi uchun uni “kaj doston” deya ta’riflaydi: To qalam chekti qazo lavhi vujudi kunfakon, //Kelmadi bir rostliq naqlingda, ey kaj doston. //Mumtahandirsan yomonlig‘da na hojat imtihon, //Naxli idboring uza murg‘iki qo‘ydi oshiyon, //Tuxmi anjum gardishidin sangboron aylading (O‘sha joyda).

Bandda keltirilgan so‘zlardan **“lavh”** – yozuv taxtasi (331), **“mumtahan”** – imtihon qiluvchi, sinovchi, sinab ko‘ruvchi (413), **“naxl”** – ko‘chat, yosh daraxt (454), **“idbor”** – baxtsizlik, ishi oldinga bosmaslik (264), **“murg‘”**– qush (419), **“sangboron”** – tosh yog‘dirish, toshbo‘ron (546) ma’nolarini anglatib keladi. Maxmur qazo lavhini yozish vaqti kelganda davron, zamonaning yolg‘onchi dostonidan, bir so‘zni ham rost aytmaganligidan iztirob chekadi. “O‘zing yomonlikda ustunsan-u, bizning amallarimizni imtihon qilishingga na hojat. Baxtsizlik daraxtingga (naxli idbor) oshyon qo‘ygan qushning tuxumini ham falak gardishidan turib toshbo‘ron aylading”, – deya falakning bedodliklaridan, zulmidan noliydi. Misralar “kunfakon-kajdoston-imtihon-oshiyon-sangboron” so‘zlari bilan qofiyalangan. Aytish kerakki, bu so‘zlar shoirning zamonadan norozilik kayfiyatlarini ifodalashga xizmat qilgan. Darhaqiqat, Maxmur davri uchun bunday kayfiyatni she’rlarda ochiq ifodalash ham ma’naviy jasorat edi. Shu ma’noda mazkur muxammas XVIII asrdagi ijtimoiy fikr taraqqiyotiga qo‘shilgan muhim hissadir.

Ijtimoiy mavzu yoritilgan muxammaslarni XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida yashab o‘tgan shoira Anbar Otin ijodida ham uchratamiz. Shoiraning og‘ir hayoti, ko‘rgan kechirgan azob-u uqubatlari, zamonadan norozilik kayfiyati uning muxammaslarida ham aks etadi. Uning “Ey go‘zal Farg‘ona” deb boshlanuvchi 5 banddan iborat mustaqil muxammasida zamonadan norozilik kayfiyati ifodalangan. O‘rta Osiyoning, jumladan Qo‘qon xonligining Rossiya tomonidan bosib olinishi va oqibatda xalqqa yetgan jabr-zulm qoralangan. Muxammasda shoira yurti Farg‘onaga murojaat qilib, uni ozod va obod ko‘rish orzusini ifodalaydi: Ey go‘zal Farg‘ona, o‘zingni kel emdi shod qil, //Har g‘azalni boshida, san, o‘z otingni yod qil, //Qaydi bandni pora aylab, o‘zluging ozod qil, //Qayg‘ulik kunlarin kuydir, barchasin barbod qil. //Emdi Turkistonda haqgo‘ylik ila faryod qil[2].

[1] https://ilmlar.uz/maxmur-sherlari-va-gazallari-toplami

[2] Анбар Отин. Шеърлар. Рисола. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1970. – Б. 64.

Anbar Otin muxammaslarida ijtimoiy hayotda bo‘layotgan voqealarga xalq manfaati nuqtayi nazaridan yondashadi. Ustozlari Dilshodi barno, Nodira, Uvaysiy, Furqat, Muqimiylar izidan borib zamonada ro‘y berayotgan zulmlarga qarshi chiqadi. To‘rt devor orasida zulmatda kun kechirayotgan o‘zbek ayollari, haqsizlikdan ozor chekayotgan xalq ahvolini tasvirlaydi. Lirik qahramon ruhiyatida zamon amaldorlarining adolatsizligi, ijtimoiy-siyosiy voqealar va hayotiy hodisalarga nisbatan norozilik hissi mavjud. Shu sababli o‘z qo‘li bilan yurtini obod qilishga chaqiradi: Bog‘laring pajmurda bo‘ldi, zog‘larning poyidin, //Ko‘kraging sad pora bo‘ldi daydilarning yoyidin, //Qatra-qatra qon tomodur o‘q teshkon joyidin, //Qip-qizil qonlar oqodur jabr ko‘rgan soyidin. //O‘z qo‘ling birla bu yurtingni o‘zing obod qil (64-b.).

XVII-XIX asrlar adabiyotida Turdi Farog‘iy, Huvaydo, Maxmur, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Ravnaq, Andalib, Roqim, Nishotiy, Munis, Ziyrak, Ogahiy, Haziniy, Rojiy Xorazmiy, Rojiy Namangoniy, Nodim, Joniy, Mujrim-Obid, Sayqaliy, Shavqiy, Xiromiy, Mirhasan Sadoiy, Muhammad G‘oziy, Yusuf Saryomiy kabi ijodkorlar Jomiy, Lutfiy, Bedil, Hofiz Sheroziy, Hofiz Xorazmiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy g‘azallariga zullisonayn shoir sifatida fors tilida ham ko‘rkam muxammaslar yaratganki, bu ular mahoratining o‘ziga xos qirrasidir.

**Rezyume.** XVII-XIX asrlar o‘zbek adabiyotida muxammas janrining imkoniyatlaridan foydalanib, jamiyatdagi muammolarni ifodalash keng tus oldi. Ularda ijtimoiylik ruhi kuchaydi. Maqolada davrning og‘ir ijtimoiy-siyosiy hayoti, xalqning amaldorlar zulmi va adolatsizligidan chekayotgan azob-u uqubatlari, zamonadan norozilik kayfiyatlari aks etgan muxammaslar xususida fikr yuritiladi.

**Resume.** In Uzbek literature of the 17th-19th centuries, widespread coverage of problems in society acquired the use of the possibilities of the Muhammas genre. The spirit of socialism was strengthened in them. The article discusses the difficult socio-political life of that time, the suffering of the people from the oppression and injustice of officials, feelings of discontent from society.

**Резюме.** В узбекской литературе XVII-XIX веков широкое освещение проблем в обществе приобрело использование возможностей жанра мухаммас. В них укрепился дух социализма. В статье обсуждаются непростая общественно-политическая жизнь того времени, страдания народа от угнетения и несправедливости чиновников, чувства недовольства от общества.